MEHNAT BOZORIDA GENDER TAFOVUTLARI VA ULARNING MILLIY IQTISODIYOT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Ibrohimova Odina Mirhosil qizi

Xalqaro Nordik universiteti

Iqtisodiyot va biznesni boshqarish

kafedrasi talabasi

ibrohimovaodina035@gmail.com

Habibjonov Usmonjon Sherzodjon o'g'li

Xalqaro Nordik universiteti

Iqtisodiyot va biznesni boshqarish

kafedrasi o'qituvchisi

habibjonovusmonjon9@gmail.com

ORCID: 0009-0005-6345-483X

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda ayollarning mehnat bozorida ishtirok etishining ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirlari tizimli tarzda o'rganildi. Nazariy va empirik metodlar orqali ularning ishchi kuchiga qo'shgan hissasi, iqtisodiy samaradorlikka ta'siri, YaIM va ichki talabga kiritgan hissa, shuningdek, salbiy jihatlari, jumladan oilaviy vaqt kamayishi, stress va an'anaviy ijtimoiy qarashlar bilan bog'liq cheklovlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari asosida samarali siyosiy va infratuzilma choralarini ishlab chiqish zarurligi, shuningdek, malakali ayollarni yuqori lavozim va innovatsion sohalarga jalb etish orqali iqtisodiy rivojlanishga qo'shimcha hissa qo'shish imkoniyatlari ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: Gender tafovutlari, mehnat bozori, ayollar bandligi, iqtisodiy samaradorlik, inson kapitali, ish haqi tengligi, ijtimoiy barqarorlik.

Kirish

Bugungi kunda global iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlaydigan eng muhim omil bu – inson kapitalidan samarali foydalanishdir. Lekin, jahon mehnat bozorida eng global muammolardan biri – gender tafovutlari hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Butun jahon miqyosida gender tengsizligi shunchaki ijtimoiy hayotdagi adolatsizlik emas, balki katta iqtisodiy yo'qotishdir. Global miqyosda bu tafovut ish haqi miqdorida, ayollarning kam daromadli sohalarda to'planishi, ayollarning rahbarlik lavozimlariga ko'tarilishidagi to'siqlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ulushini kengaytirish strategik ahamiyatga ega. Mamlakatimizda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida gender tengligini ta'minlash, ayollarni tadbirkorlikka jalb qilish va ularning rahbarlik lavozimidagi ulushini oshirish bo'yicha tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Lekin, O'zbekiston mehnat bozorida ham postsovet mamlakatlaridek institutsional va ijtimoiy to'siqlar saqlanib qolmoqda. Ammo, an'anaviy stereotiplar va oilaviy yumushlarning ayollar zimmasiga ko'proq yuklanishi ularning ijtimoiy hayotdagi faolligini va rivojlanishini sekinlashtirmoqda. O'zbekiston uchun gender tafovutlarini bartaraf etish va ilmiy asosda tahlil qilish-kambag'allikni qisqartirish, inson kapitalini boyitish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun nihoyatda dolzarbdir.

Maqolaning maqsadi shundan iborat-ki, jahon va milliy mehnat bozoridagi gender tafovutlarini keltirib chiqaruvchi iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy omillarni tahlil qilish va ushbu tafovutlarni kamaytirish orqali milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini va ayollarning ijtimoiy faolligini ta'minlash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Maqolaning vazifalari esa mehnat bozorida erkaklar va ayollar o'rtasidagi tengsizlikning asosiy sabablarini ilmiy jihatdan tushuntirib berish, rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, ayollar bandligini oshirishda qanday imtiyoz va yordamlar yaxshi samara berishini tahlil qilish, xotin-qizlarning o'z biznesini boshlashi yoki maoshi yuqori ishlarga kirishiga xalaqit berayotgan to'siqlarni

aniqlash, shuningdek gender farqlarini kamaytirish orqali O'zbekiston iqtisodiyotini qanday rivojlantirish mumkinligini o'rganishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili

Jahon mehnat bozorida gender tafovutlari nafaqat ish haqi miqdorida, balki kasbiy segregatsiya va rahbarlik lavozimlariga kirish imkoniyatlarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu tafovutlar ko'pincha an'anaviy stereotiplar va oilaviy majburiyatlarning noteng taqsimlanishi natijasida yuzaga keladi. Mazkur muammolarning iqtisodiy oqibatlarini o'rganish maqsadida biz inson kapitali nazariyasi va institutsional yondashuvlar doirasida asosiy ilmiy ishlar tahliliga to'xtalamiz:

1. A.Kumar o'z tadqiqotida ayollar bandligini shunchaki daromad manbai emas, balki insonning fundamental erkinliklarini kengaytirish va jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash vositasi sifatida asoslab bergan. Amartya ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki ularning oila ichidagi qaror qabul qilish jarayonlarida mavqeini oshirishini va bu orqali butun jamiyat farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlagan. U iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda faqat YaIM o'sishiga emas, balki ayollarning ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy tanlov erkinligini oshiruvchi "imkoniyatlar" tizimini yaratishga e'tibor qaratish taklifini bergan. Ammo, uning g'oyalari ko'proq falsafiy va ijtimoiy tushunchalarga tayanadi.

2. C.Goldinning tarixiy-mehnat dinamikasi tadqiqotida ayollar bandligini asrlar davomida o'zgarishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash va ish haqidagi tafovut sabablarini o'rgangan. Claudia gender tafovuti ko'p hollarda ishning "moslashuvchan emasligi" bilan bog'liq: ya'ni ayollar oilaviy majburiyatlar tufayli moslashuvchan grafikni tanlashi ularning daromadiga salbiy ta'sir qilishini tadqiq qilgan. Mehnat bozorida "ish vaqtining moslashuvchanligi"ni joriy etishni va ayollarning oliy ta'limdagi ishtirokini rag'batlantirish orqali tizimli tengsizlikni kamaytirishni tavsiya qilgan.

3. OECD tadqiqotchilari Bluendell va Dickens turli mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, ayollar bandligiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar va iqtisodiy rag’batlantirish mexanizmlarini aniqlash ustida tadqiqot o’tkazishgan. Ular bolalar parvarishi, moslashuvchan ish vaqti va masofaviy mehnat ayollar bandligini oshiruvchi asosiy omillar ekanligini, soliq imtiyozlari esa ularni rasmiy sektorga jalb qilishini isbotlashgan. Tadqiqotchilar hukumatlar tomonidan soliq subsidiyalarini joriy etish va ayollarga ish vaqtini mustaqil boshqarish imkonini beruvchi “moslashuvchan bandlik” infratuzilmasini rivojlantirishni taklif etishgan.

4. K.Antonova va A.Denisova ham shu masala yuzasidan tadqiqot olib borishgan. Postsovet mamlakatlaridagi o’ziga xos gender tafovutlari, ish haqi va institutsional to’siqlarni o’rganishgan. Ular ushbu hududlarda ayollar asosan quyi malakali va kam maoshli ishlarda to’planib qolgani hamda institutsional cheklovlar mavjudligini aniqlashgan. Ayollarni kichik biznes, tadbirkorlik va ijtimoiy xizmatlar sohasiga yo’naltiruvchi maxsus islohotlarni amalga oshirish va tizimli kamsitishlarni qonuniy bartaraf etishni taklif qilganlar. Ammo, tadqiqotda ayollarning tadbirkorlikka o’tishi uchun zarur bo’lgan boshlang’ich capital va texnik ko’nikmalar yetishmovchiligi kabi amaliy muammolarga yetarlicha yechim ko’rsatilamagni kamchilikdir.


Metodologiya

Ushbu tadqiqotda ayollarning mehnat bozorida faol ishtirok etishining milliy iqtisodiyot samaradorligiga ta’sirini o‘rganish uchun nazariy metodlar qo‘llanildi. Nazariy jihatdan mehnat bozoridagi gender tafovutlari, inson kapitali nazariyasi, YaIM va iqtisodiy o‘sish modellarini tahlil qilish orqali ijobiy va salbiy ta’sirlar aniqlandi. Empirik jihatdan esa T-jadval asosida ijobiy va salbiy jihatlar kategoriyalarga ajratilib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari o‘rganildi. Tadqiqotda statistik ma’lumotlar, xalqaro va milliy tadqiqotlar natijalari, shuningdek soliq, bandlik va daromad ko‘rsatkichlari

integratsiyalashgan holda tahlil qilindi. Shu usullar orqali ayollarning mehnat bozorida ishtirok etishining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tizimli va asosli tarzda baholandi.

Tahlil va natijalar

Gender tafovutlari — erkaklar va ayollarning mehnat bozorida imkoniyatlari, daromadlari, bandlik darajasi, lavozim va kasbiy taqsimotidagi farqlardir.



1-rasm. Ayollar va erkaklar ish faoliyati o‘rtasidagi tafovvutlar.

1-rasmdagi gender tafovutlari mehnat bozorida tengsizlikning tizimli xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi: ish haqi tafovuti ayollarning bir xil malaka va tajribaga ega bo‘lsa-da, erkaklarga nisbatan kamroq daromad olishini anglatib, bu holat uzoq muddatda ularning jamg‘arma va investitsiya imkoniyatlarini cheklaydi; bandlik darajasidagi farq esa ayollarning iqtisodiy faolligi pastligi sababli mamlakatda mavjud mehnat salohiyati to‘liq safarbar etilmayotganini bildiradi; kasbiy segregatsiya gorizontal (sohalar bo‘yicha ajralish) va vertikal

(rahbarlik lavozimlarida kam vakillik) ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib, yuqori daromadli va qaror qabul qiluvchi pozitsiyalarda gender nomutanosiblikni yuzaga keltiradi; norasmiy bandlikning yuqoriligi esa ayollarning ijtimoiy himoya, pensiya va mehnat kafolatlaridan chetda qolishiga olib keladi, natijada iqtisodiy barqarorlik va inson kapitali sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O’zbekiston Respublikasining so’nggi yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari mehnat bozorida gender tengligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo’nalishiga aylanganini ko’rsatmoqda. Quyidagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida asosiy ko’rsatkichlar tahlil keltiriladi.

Erkaklar va ayollar bandlik darajasi.

Statistika agentligi ma’lumotlariga ko’ra, O’zbekistonda mehnat resurslarining taqsimlanishida gender tafovuti sezilarli darajada saqlanib qolmoqda.

– Erkaklar bandligi: mehnatga layoqatli erkaklar orasida bandlik darajasi barqaror yuqori bo’lib, o’rtacha 75-78% ni tashkil etadi.

– Ayollar bandligi: ayollar o’rtasida bu ko’rsatkich sezilarli darajada past – taxminan 43-45% atrofida.

– Tahlil: erkaklar asosan daromad keltiruvchi rasmiy sektorda faol bo’lsa, ayollarning katta qismi uy mehnati va norasmiy sektor hissasiga to’g’ri kelmoqda.


Ishsizlik darajasidagi farq.

2025-yilning birinchi yarmi yakuniga ko’ra, mamlakatda umumiy ishsizlik darajasi 5,1% gacha pasaygan. Biroq, gender kesimida farqlar mavjud:

– Ayollar o’rtasidagi ishsizlik darajasi erkaklarnikiga nisbatan doimiy ravishda 1,5-2 baravar yuqori bo’lib kelmoqda.

– Ayniqsa, yosh ayollar (16-30 yosh) o’rtasida ishsizlik darajasi eng yuqori ko’rsatkichlarni ko’rsatadi, bu esa ularning ta’limdan mehnat bozoriga o’tishidagi to’siqlardan dalolat beradi.

Gender tafovutlarining kelib chiqish sabablari ko‘p omilli va tizimli xarakterga ega bo‘lib, ular ijtimoiy, iqtisodiy va institutsional omillar bilan chambarchas bog‘liq. Bu tafovutlar tasodifiy emas, balki jamiyatda shakllangan qadriyatlar, mehnat taqsimoti an’analari hamda ta’lim va bandlik siyosatidagi nomutanosibliklar natijasida yuzaga keladi. Shuningdek, oilaviy majburiyatlarning notekis taqsimlanishi ham ayollarning mehnat bozoridagi imkoniyatlarini cheklovchi muhim omillardan biridir.




2-rasm. Gender tafovutlarining kelib chiqish sabablari.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy stereotiplar ayollarni past daromadli yoki ijtimoiy sohalarga yo‘naltiradi, bu esa kasbiy segregatsiyani kuchaytiradi. Bolalar parvarishi va uy mehnatining asosan ayollar zimmasiga tushishi ularning ish vaqti va martaba o‘sishini cheklaydi. Infratuzilma yetishmasligi hamda yashirin diskriminatsiya holatlari esa ish haqi tafovuti va rahbarlik lavozimlarida gender nomutanosibligini yanada chuqurlashtiradi.

Mehnat bozorida gender tafovutlari milliy iqtisodiyot samaradorligiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Iqtisodiy tizim samaradorligi mavjud resurslardan qanchalik to‘liq va oqilona foydalanilishiga bog‘liq. Agar aholining

muhim qismi — xususan, ayollar — mehnat bozorida to‘liq ishtirok etmasa yoki ularning salohiyati past baholansa, iqtisodiyot o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olmaydi. Bu esa uzoq muddatli o‘sish sur’atlariga salbiy ta’sir qiladi.



3-rasm. Milliy iqtisodiyot samaradorligiga ta’siri.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, gender tafovutlari mehnat resurslarining yetarlicha safarbar etilmasligiga, ishlab chiqarish hajmining pasayishiga va Potential GDP darajasining to‘liq amalga oshmasligiga olib keladi. Bundan tashqari, daromadlar tengsizligi ichki talabni qisqartiradi va soliq tushumlarini kamaytiradi. Natijada iqtisodiy o‘sish sur’atlari sekinlashadi hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi pasayadi.

Tarmoqlar kesimida bandlik.

Iqrisodiy tarmoqlar bo'yicha ayollar va erkaklar taqsimoti "gender segregatsiya" xarakteriga ega:

– Xizmat ko'rsatish sohasi: ayollarning eng katta ulushi (taxminan 80%) sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida jamlangan.

– Sanoat: bu tarmoqda band bo'lgan ayollar ulushi qariyb 50% ga yetgan bo'lsa-da og'ir sanoat va energetika sohalarida erkaklar ustunlik qiladi.

– Qishloq xo'jaligi: ushbu sohada ayollar asosan mavsumiy va norasmiy ishlarda band bo'lib, bu ularning ijtimoiy himoyasini cheklaydi.

Ta'lim darajasidagi gender farq (OTMlarda o'qish).

So'nggi yillarda oliy ta'limga qabul kvotalarining oshishi qizlarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi:

– Statistika agentligi ma'kumotlariga ko'ra, OTM talabalari orasida qizlar ulushi 46-48% ga yetgan.

– Biroq, mutaxassislik yo'nalishlarida tafovut katta: qizlar asosan pedagogika va tibbiyot yo'nalishlarini, o'g'il bolalar esa muhandislik, IT va qurilish sohalarini tanlamoqda.

Ayollarning mehnat bozorida faol ishtirok etishi nafaqat ijtimoiy adolatni ta'minlash, balki milliy iqtisodiyotning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu faoliyatning ijobiy va salbiy jihatlari T-jadval orqali ko'rib chiqilganda, uning murakkab va ko'p qirrali ta'siri aniq ko'zga tashlanadi. Ijobiy jihatlar iqtisodiy o'sish, ishchi kuchining samarali ishlatilishi, daromadlar va soliq tushumlarining oshishi hamda innovatsiya va raqobatbardoshlikni kuchaytirish bilan bog'liq bo'lsa, salbiy jihatlar shaxsiy va ijtimoiy masalalardan kelib chiqadi, jumladan stress, oilaviy vaqt kamayishi va an'anaviy qarashlar bilan to'qnashuv.

1-jadval

Ayollarning mehnat bozorida faol ishtirok etishining T-jadvali

Ijobiy jihatlar	Salbiy jihatlar
– *YaIM o‘sishiga hissa*. band ayollar iqtisodiy faol aholini oshiradi, ishlab chiqarish hajmini ko‘paytiradi.	– *Oilaviy vaqt cheklovi*. Ayollar ish bilan band bo‘lganda oilaviy va uy ishlariga ajratiladigan vaqt kamayishi mumkin.
– *Inson kapitalining samarali ishlatilishi*. Malakali ayollar iqtisodiyotning yuqori qo‘shilgan qiymatli sektorlarida ishlaydi, innovatsion salohiyat oshadi.	– *Stress va charchash*. Ish va oilaviy majburiyatlar bir vaqtda bo‘lganda ruhiy va jismoniy stress ortadi.
– *Ijtimoiy barqarorlik va tenglik*. Gender tengligi jamiyatda ijtimoiy adolatni kuchaytiradi, qashshoqlik xavfini kamaytiradi.	– *Ish bozoridagi raqobat kuchayishi*. Faol ayollar soni oshishi bilan ayrim sektorlar va lavozimlarda raqobat kuchayadi.
– *Daromadlar va iste’molning oshishi*. Ayollarning ish haqi oilaviy daromadlarni ko‘paytiradi, ichki talab va iqtisodiy faollik ortadi.	– *Karyera va lavozim chegarasi*. Ba’zi korxona va jamiyatlarda ayollar uchun yuqori lavozimlar cheklangan bo‘lishi mumkin.
– *Soliq tushumlarining ko‘payishi*. Band ayollar soni oshishi bilan davlatning soliq bazasi kengayadi, budjet imkoniyatlari ortadi.	– *An’anaviy qarashlar bilan to‘qnashuv*. Ba’zi jamiyatlarda ayollarning faol mehnatdagi roli ijtimoiy qarashlar bilan mos kelmasligi mumkin.
– *Innovatsiya va biznes rivoji*. Ayollarning rahbarlik va texnologik sohalarga jalb etilishi innovatsion loyihalar va yangi biznes	– *Ish va uy vazifalarining uyg‘unlashtirish qiyinchiligi*. Masofaviy ish yoki ish vaqti moslashuvi yetarli bo‘lmasa,

imkoniyatlarini oshiradi.	samaradorlik pasayishi mumkin.

T-jadvaldagi ijobiy jihatlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, birinchi navbatda iqtisodiy samaradorlikning oshishi ajralib turadi. Ayollar ishchi kuchida faol ishtirok etganda, YaIM o‘sadi, ishlab chiqarish hajmi kengayadi, va yuqori malakali sohalarda inson kapitali samarali ishlatiladi. Shuningdek, oilaviy daromadlar oshadi, ichki talab kuchayadi va davlatning soliq tushumlari ko‘payadi. Bu esa iqtisodiy tizimning barqarorligini ta’minlashga, innovatsion salohiyatning rivojlanishiga va raqobatbardosh korxona muhitining yaratilishiga yordam beradi.

Salbiy jihatlar esa shaxsiy va ijtimoiy cheklovlar bilan bog‘liq. Ayollar ish bilan band bo‘lganda oilaviy vaqt kamayadi, ish va uy vazifalarini uyg‘unlashtirish qiyinlashadi, va ruhiy hamda jismoniy stress ortadi. Ba’zi sohalarda raqobat kuchayadi va yuqori lavozimlar uchun imkoniyatlar cheklangan bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, ayrim jamiyatlarda an’anaviy qarashlar ayollarning faol ishchi rolini qiyinlashtiradi. Shunday qilib, T-jadval ko‘rsatadiki, ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki ijobiy ta’sirlar bilan bir qatorda, qo‘shimcha infratuzilma va siyosiy qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi.

Xulosa va takliflar

Ayollarning mehnat bozorida faol ishtirok etishi milliy iqtisodiyotning samaradorligi va barqaror o‘sishi uchun muhim omil hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijobiy jihatlar – YaIM va bandlik darajasining oshishi, inson kapitalining samarali ishlatilishi, ichki talab va soliq tushumlarining ko‘payishi hamda innovatsion salohiyatning rivojlanishi – salbiy jihatlardan ustundir. Shu bilan birga, salbiy tomonlar – oilaviy vaqt cheklovi, stress, ish va uy majburiyatlarini uyg‘unlashtirish qiyinchiliklari va an’anaviy ijtimoiy qarashlar – davlat siyosati va korxona infratuzilmasi orqali yengib o‘tilishi mumkin.

Umuman olganda, gender tengligini ta’minlash nafaqat ijtimoiy adolat, balki milliy iqtisodiy rivojlanish strategiyasi sifatida ham ahamiyatlidir.

Takliflar

– Ayollar ish va oilaviy majburiyatlarni uyg‘unlashtira olishlari uchun qulay sharoit yaratish.

– Ish haqi tafovutlarini kamaytirish va ijtimoiy adolatni ta’minlash.

– Ayollarni yuqori malakali sohalar va rahbarlik lavozimlariga jalb etish uchun maxsus trening va stipendiya dasturlarini yaratish – Inson kapitalining to‘liq ishlatilishini ta’minlash.

– An’anaviy qarashlarni o‘zgartirish va ayollarning faol ishchi roli qabul qilinishini rag‘batlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abegaz M. B. Analyzing the Impact of Governance on Corruption Perception //Horn of African Journal of Business and Economics (HAJBE). – 2025. – T. 8. – №. 1. – C. 84–102-84–102.

2. U.Sh.Habibjonov. Analysis of free economic zones in Uzbekistan//Economics and Innovative Technologies. – 2024. – T. 12. – №. 5. – C. 88-95.

3. Abdullah Özçil "Ranking of G20 Countries’ Governance Index Scores Using PSI Multi-Criteria Decision-Making Method"//Advancements in Decision-Making and Data Analytics: Case Applications, p.81-96. 1.Edition, March 2025. ISBN: 978-625-385-089-0.

4. U.Sh.Habibjonov. “Analysis of factors influencing the volume of foreign direct investments in the republic of Uzbekistan: correlation analysis.” Экономика и социум 4-1 (131) (2025): 200-207.

5. Sarihan A. Y., Yildiz H. A PLS-SEM approach to understanding the relationship between global competitiveness and environmental performance: the

moderating role of perceived corruption //Future Business Journal. – 2025. – Т. 11. – №. 1. – С. 159.

6. Arvian T. et al. Corruption, violence, and the rule of law affecting regulatory control: forecast evaluation //Экономический журнал Высшей школы экономики. – 2022. – Т. 26. – №. 1. – С. 145-164.

7. Sultani, G., & Usmonjon, H. (2024). Stages of integration of the educational system in the development of globalization. Education and economy. Masters, 2(9), 74-79.